

## ZAMONAVIY AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

**Xudoyqulov To‘ra Musurmonovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,

Raqamli iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: [toraxudoyqulovmusurmonovich@gmail.com](mailto:toraxudoyqulovmusurmonovich@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy aksiyadorlik jamiyatlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqotda korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish, axborot shaffofligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida aksiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlovchi asosiy omillar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** aksiyadorlik jamiyati, korporativ boshqaruv, kapital bozori, investitsiya, raqamli iqtisodiyot, shaffoflik.

### Аннотация

В данной научной статье проанализированы теоретические и практические аспекты совершенствования современных акционерных обществ. В исследовании рассмотрены вопросы развития системы корпоративного управления, повышения прозрачности информации, внедрения цифровых технологий, усиления инвестиционной привлекательности, а также совершенствования механизмов управления рисками. Кроме того, на основе международного опыта научно обоснованы основные факторы, обеспечивающие эффективное функционирование акционерных обществ.

**Ключевые слова:** акционерное общество, корпоративное управление, рынок капитала, инвестиции, цифровая экономика, прозрачность.

### Abstract

This scientific article analyzes the theoretical and practical aspects of improving modern joint-stock companies. The study examines the issues of developing a corporate governance system, increasing information transparency, introducing digital technologies, enhancing investment attractiveness, and improving risk management mechanisms. Also, based on international experience, the main factors ensuring the effective functioning of joint-stock companies are scientifically substantiated.

**Keywords:** joint-stock company, corporate governance, capital market, investment, digital economy, transparency.

### KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiy tizimning muhim institutsional shakllaridan biri hisoblanadi. Ular yirik kapitalni jalb qilish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda iqtisodiy o‘rishni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda aksiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyat yuritishi korporativ boshqaruv tizimining rivojlanganligi,

axborot shaffofligi hamda investorlar manfaatlarini himoya qilish bilan chambarchas bogʻliq.

Aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) dunyo iqtisodiyotining asosi boʻlib, yirik kapitalni birlashtirish, xavflarni taqsimlash va innovatsiyalarni moliyalashtirish orqali global ishlab chiqarish, investitsiya va boshqaruv tizimida yetakchi oʻrin tutadi. Ular aksiyalar orqali arzon kapital jalb qilib, samarali boshqaruvni taʼminlaydi va xalqaro moliya bozorlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda dunyo davlatlarida taxminan 45-55 ming atrofida aksiyadorlik jamiyati mavjud boʻlib, ular global kapital bozorining asosiy institutsional subyektlari hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari global kapital bozorining asosiy ishtirokchilari boʻlib, investitsiyalar, texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy oʻsishning asosiy drayveri hisoblanadi. 2024-yilda dunyoda 46 mingdan ortiq birjada roʻyxatdan oʻtgan kompaniya mavjud. Ularning umumiy bozor kapitalizatsiyasi 124-125 trillion dollar atrofida<sup>1</sup>.

Oʻzbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari soni va ularning chiqarayotgan qimmatli qogʻozlar hajmi soʻnggi yillarda ortib bormoqda. Masalan, 2023-yilda Respublikada jami 612 ta aksiyadorlik jamiyati faoliyat koʻrsatgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 625 taga yetdi va 2025-yil boshida 688 taga oshdi<sup>4</sup>. Shu davr mobaynida davlat ulushiga ega aksiyadorlik jamiyatlari soni ham 220 tadan 261 taga koʻpaygan

### ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruv nazariyasi va aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish masalalari iqtisodiyot fanida keng va chuqur oʻrganilgan yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar korporativ tuzilmalarning samarali faoliyat yuritishi, boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi hamda investorlar manfaatlarini himoya qilish masalalariga alohida eʼtibor qaratadi. Klassik iqtisodiy nazariyalarda aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvi mulkchilik va boshqaruvning ajralishi bilan bogʻliq muammolar orqali izohlanadi.

Xususan, A. Berle va G. Means oʻz tadqiqotlarida yirik korporatsiyalarda mulk egalari (aksiyadorlar) va boshqaruvchilar (menejerlar) oʻrtasidagi manfaatlar tafovutini tahlil qilib, agentlik muammosining yuzaga kelishini asoslab bergan. Ularning ilmiy qarashlari zamonaviy korporativ boshqaruv nazariyasining shakllanishiga muhim zamin yaratgan. Mazkur yondashuv keyinchalik agentlik nazariyasi rivojlanishiga olib kelib, aksiyadorlik jamiyatlarida nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zaruratini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qilgan.

Korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, unda aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, barcha manfaatdor tomonlar bilan samarali munosabatlarni yoʻlga qoʻyish, axborot shaffofligini taʼminlash va boshqaruv organlarining hisobdorligini oshirish asosiy prinsiplar sifatida belgilangan. Ushbu tamoyillar hozirgi kunda koʻplab mamlakatlarda korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishda metodologik asos boʻlib xizmat qilmoqda.

---

<sup>1</sup> Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) maʼlumotlariga koʻra:

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda korporativ boshqaruv tizimining samaradorligi ko'p jihatdan shaffoflik, hisobdorlik, risklarni boshqarish va strategik qarorlar qabul qilish sifatiga bog'liqligi ta'kidlanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi korporativ boshqaruv jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Elektron boshqaruv tizimlari, onlayn aksiyadorlar yig'ilishlari, raqamli hisobotlar va ma'lumotlar tahlili korporativ boshqaruvning samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida ko'rilmogda.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Vahobov<sup>1</sup>, O.Qo'ziyev<sup>2</sup>, S.G'ulomov<sup>3</sup>, M.Usmonov<sup>4</sup>, B.Xo'jayev<sup>5</sup>, A. Ermatov<sup>6</sup> kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruvni rivojlantirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish omillarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida iqtisodiy tahlil, strategik boshqaruv, investitsiya faoliyati va marketing yondashuvlarining o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan<sup>7</sup>.

Mahalliy tadqiqotlarda aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv samaradorligini oshirishda moliyaviy tahlil, ichki nazorat tizimi, investitsiya siyosati va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati alohida qayd etiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarini takomillashtirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda iqtisodiy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar materiallari hamda ilmiy adabiyotlar asosida aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadqiqot natijalariga ko'ra zamonaviy aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi: korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, axborot shaffofligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish.

Zamonaviy aksiyadorlik jamiyatlarini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Hozirda aksiyadorlik jamiyatlari soni bo'yicha salmoqli davlatlardan biri Xitoydir. Xitoyda aksiyadorlik jamiyatlari orasida global miqyosda mashhur va ta'sirli kompaniyalar juda ko'p. Ular asosan texnologiya, moliya, energetika va sanoat sohasida yetakchi hisoblanadi. Texnologik sohada Alibaba, Tensent, Baidu aksiyadorlik kompaniyalari. Energetika va sanoat sohasida PetroChina, Sinopec kabi aksiyadorlik kompaniyalari, Bank va moliya sektorida Industrial and Commercial Bank of China (ICBC), China Construction Bank kabilar

<sup>1</sup> Vahobov A. Korxonalar moliyaviy tahlili. - Toshkent: Iqtisod-moliyaviy nashriyot, 2019

<sup>2</sup> Qo'ziyev O. Korxonalar iqtisodiyoti va tahlil. - Toshkent: Fan, 2020

<sup>3</sup> G'ulomov S.S. Iqtisodiy tahlil asoslari. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.

<sup>4</sup> Usmonov M. Korporativ boshqaruv va tahlil. - Toshkent: Innovatsiya zaminlari, 2021

<sup>5</sup> Xo'jayev B. Korxonalarda risklarni boshqarish. - TDPU ilmiy jurnali, 2022.

<sup>6</sup> Ermatov A.A. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etishda tahlilning o'rni - Raqamli iqtisodiyot jurnali

dunyoga mashhurdir. Ularning mashhurligi va takomillashganligi sababi samarali ish faoliyatidir. Ya'ni Alibaba kompaniyasi kompaniyaning o'z aksiyalarini birinchi marta ommaga (investorlarga) ochiq ravishda sotuvga chiqarish (IPO) orqali katta kapital jalb qilganlar.

Tencent aksiyalari ko'plab investorlar va fondlarga sotilgan. Ya'ni u - ochiq (public) kompaniya bo'lib, aksiyalari fond birjasida erkin muomalada. Kompaniya xalqaro ommaviy kompaniya hisoblanadi. 2025-yildagi yillik daromad 90-101 mlrd AQSH dollari atrofida bo'lgan.

Singapur aksiyadorlik kompaniyalari Osiyodagi eng rivojlangan va samarali korporativ tizimlardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda aksiyadorlik jamiyatlari kuchli huquqiy baza, rivojlangan moliya bozori va yuqori darajadagi korporativ boshqaruv bilan ajralib turadi. Singapurda aksiyadorlik kompaniyalari odatda bu aksiyadorlik jamiyatining bir turi bo'lib, unda kompaniya kapitali aksiyalarga bo'lingan va bu aksiyalar ommaviy ravishda sotiladi, Public Company Limited by Shares (PLC) shaklida tashkil etiladi. Aksiyalar orqali kapital jalb qiladi.

O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarini (AJ) PESTEL tahlili orqali chuqur ko'rib chiqish mumkin. PESTEL tahlili - bu kompaniya yoki sektorga tashqi muhit omillarining Political, Economic, Social, Technological, Environmental, Legal jihatdan baholanishi.

#### Political (Siyosiy omillar)

- Davlatning faol roli: Ko'plab AJlarda davlat ulushi mavjud, islohotlar orqali privatizatsiya amalga oshirilmoqda.
- Iqtisodiy siyosat: Davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va strategik tarmoqlarni nazorat qilishga harakat qiladi.
- Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash: Aksiyadorlik jamiyatlari uchun soliq imtiyozlari va davlat investitsiyalari mavjud.
- Xavf va beqarorlik: Siyosiy qarorlar tez o'zgarishi investorlar uchun riskni oshiradi.

#### Economic (Iqtisodiy omillar)

- Makroiqtisodiy barqarorlik: Inflyatsiya va valyuta kursi barqaror emas, bu investorlar uchun xavf tug'diradi.
- Kapital bozori rivoji: Fond bozori rivojlanayotgan, IPOlar soni kam.
- Kreditlash va moliyalashtirish: Kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslar cheklangan.
- Iqtisodiy o'sish: Yalpi ichki mahsulotning o'sishi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

#### Social (Ijtimoiy omillar)

- Jamiyatning moliyaviy savodxonligi: Ko'plab aholida aksiyalar va fond bozori bo'yicha yetarli bilim yo'q.
- Ishchi kuchi: Malakali menejerlar va mutaxassislar yetishmaydi.
- Xodimlarni motivatsiya: Aksiyadorlik jamiyatlarida rag'batlantirish tizimi rivojlanmoqda.
- Ijtimoiy barqarorlik: Korporativ ijtimoiy mas'uliyat asta-sekin rivojlanmoqda.

### Technological (Texnologik omillar)

– Raqamlashtirish: Elektron savdo, onlayn aksiyalar savdosi va fintech xizmatlari rivojlanmoqda.

– Axborot tizimlari: Korporativ boshqaruvda texnologiya yetarli emas, yangilanish talab qilinadi.

– Innovatsiya: Startup ekotizimi va texnologik innovatsiyalar nisbatan cheklangan.

### Environmental (Atrof-muhit omillari)

– Ekologik talablar: Qonunchilik orqali korporativ ekologik mas’uliyat oshirilmoqda.

– Barqaror rivojlanish: ESG tamoyillari hali keng tatbiq etilmagan.

– Atrof-muhit ta’siri: Sanoat kompaniyalarining chiqindilari va resurs ishlatish samaradorligi muhim omil.

### Legal (Huquqiy omillar)

– Qonunchilik: “Aksiyadorlik jamiyatlari to‘g‘risida”gi qonun mavjud, lekin ba’zi tartib va normativlar eskirgan.

– Investirlarni himoya qilish: Minoritar aksiyadorlar huquqlari to‘liq himoyalangan.

– Moliyaviy nazorat: Hisobot va audit tizimi rivojlanmoqda, IFRSga moslashish talab qilinadi.

– Soliq va regulator nazorat: Qonunlar tez o‘zgaradi, bu investorlar uchun noaniqlik tug‘diradi.

O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari uchun PESTEL tahlili shuni ko‘rsatadiki:

– Siyosiy va iqtisodiy omillar investorlar va davlat nazorati bilan chambarchas bog‘liq.

– Ijtimoiy va texnologik omillar rivojlanish va raqobatbardoshlikni oshirishga imkon beradi.

– Huquqiy va ekologik omillar korporativ boshqaruvni mustahkamlash va barqaror rivojlanish uchun muhim.

Zamonaviy aksiyadorlik jamiyatlarini takomillashtirish yo‘nalishlari iqtisodiyotda samaradorlikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va korporativ boshqaruvni rivojlantirish bilan bog‘liq. Quyida asosiy yo‘nalishlar keltiriladi.

#### 1. Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish

– Kuzatuv kengashi va ijroiya organlari faoliyatini samarali tashkil etish

– Mustaqil direktorlar institutini rivojlantirish

– Menejment faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish

– Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish

#### 2. Shaffoflik va axborot ochiqligini oshirish

– Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish

– Aksiyadorlarga muntazam va to‘liq ma’lumot berish

– Kompaniyaning faoliyati haqida ochiq axborot siyosatini yuritish

#### 3. Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish

– Korporativ boshqaruvda raqamli platformalardan foydalanish

- Onlayn aksiyadorlar yig'ilishlarini tashkil qilish
- Elektron ovoz berish tizimini joriy etish
- 4. Investitsion jozibadorlikni oshirish
  - Strategik investorlarni jalb qilish
  - Kapital bozorlarida faol ishtirok etish
  - Dividend siyosatini takomillashtirish
- 5. Risk-menejment va ichki nazorat tizimini rivojlantirish
  - Ichki audit tizimini mustahkamlash
  - Moliyaviy va operatsion risklarni boshqarish
  - Korporativ risklarni baholash tizimini yaratish
- 6. Innovatsiyalar va modernizatsiyani qo'llab-quvvatlash
  - Yangi texnologiyalarni joriy etish
  - Raqamli transformatsiyani amalga oshirish
  - Ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish
- 7. Kadrlar salohiyatini oshirish
  - Menejerlar va mutaxassislarni qayta tayyorlash
  - Korporativ madaniyatni rivojlantirish
  - Rag'batlantirish va motivatsiya tizimini takomillashtirish

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiyadorlik jamiyatlarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish hamda raqamli transformatsiyani amalga oshirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirishda xalqaro tajribadan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega.

**1-jadval.**

### Aksiyadorlik jamiyatlarini takomillashtirish yo'nalishlari<sup>1</sup>

Takomillashtirish yo'nalishi	Asosiy choralar	Kutilayotgan natija
Korporativ boshqaruvni rivojlantirish	Mustaqil direktorlar instituti, kuzatuv kengashi faoliyatini kuchaytirish	Boshqaruv samaradorligi oshadi
Axborot shaffofligini oshirish	IFRS standartlari asosida hisobot yuritish	Investorlar ishonchi ortadi
Raqamli boshqaruv tizimlari	Elektron aksiyadorlar yig'ilishi, onlayn ovoz berish	Boshqaruv tezligi va samaradorligi ortadi
Investitsion jozibadorlikni kuchaytirish	Dividend siyosatini takomillashtirish, strategik investorlar	Kapital oqimi ko'payadi
Risk-menejment tizimi	Ichki audit va risklarni baholash tizimi	Moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi
Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash	Ilmiy tadqiqot va texnologik modernizatsiya	Raqobatbardoshlik oshadi

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Kelgusida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirishda xalqaro tajribadan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Aksiyadorlik jamiyatlarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish hamda raqamli transformatsiyani amalga oshirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni  
<https://lex.uz/en/docs/6600413>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-may O‘RQ-370-son “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni  
<https://lex.uz/docs/-2382409>
3. Abduvoxidov B. Analysis OF Enhancing the Business Environment AND Developing Small Businesses in Uzbekistan Based on Foreign AND National Experience //Green Economy and Development. - T. 3. - №. 12. - C. 668554.
4. D.Suyunov, S.Elmirzayev Korporativ boshqaruv -Darslik, Toshkent-2021
5. Berle A., Means G. The Modern Corporation and Private Property. OECD Principles of Corporate Governance.
6. Behzod A. Xizmat ko‘rsatish sohasini barqaror rivojlantirishda xalqaro marketing strategiyalaridan foydalanish //Marketing Jurnal. - 2026. - №. 1.
7. Brealey R., Myers S. Principles of Corporate Finance



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

<b>Muharrir:</b>	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
<b>Ingliz tili muharriri:</b>	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
<b>Rus tili muharriri:</b>	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
<b>Musahhih:</b>	Karimova Shirin Zoxid qizi
<b>Sahifalovchi va dizaynerlar:</b>	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, mart, 3-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**